



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 2/1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

Анвар Нематович Холиқулов "ZILOL BAXT" меҳмонхонаси самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ва уларни аниқлаш йўллари	78
Ibragim Xudayarovich Nimatov Zamonaviy turizmda motivlashtirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili	82
Sarvinoz Ashurova The importance of Guest houses in the tourism industry of Uzbekistan	87
Собир Худойбердиевич Махмудов Тарихий-маданий туризм салоҳияти ва уни баҳолаш	92
Шахноза Шомуротовна Тошпулатова Навоий вилоятининг тарихий - архитектура ёдгорликларидан туризм соҳасида фойдаланиш йўллари	97
Gulmira Rabbonovna Tursunova, Diyora Istamovna Ochilova O'zbekistonda gastronomik turizmni rivojlantirishning italiya tajribasi	100
Mahliyo Yaxshiboy qizi Umarova O'zbekistonning mavjud turizm salohiyatidan kengroq foydalanish yo'llari hamda xususiyatlari	104
Юлдуз Пирназаровна Урунбаева Музей туризмни ривожлантириш – аҳоли фаровонлигини оширишнинг асосий омили	107
Фарух Тохирович Шукуров Туризм соҳасидаги тадқиқотларнинг эпистемологияси ва билимларнинг манбалари	111
Akmal Odilovich Odilov Turizm sohasida marketing tadqiqotlarining	115
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Абдухолик Эгамович Тангиров Инновацион иқтисодиёт шароитида корхоналарни бошқариш ва уни такомиллаштириш	118
Хасан Абдусаидович Рахимов Туризм ва меҳмонхона соҳасида кадрлар менежментининг мазмуни, турлари ва улардан самарадорликни оширишда фойдаланиш йўллари	121
Гўзалхон Акром қизи Абдурашидова Маркетинг тизимида нархларни шакллантириш механизмларининг эволюцияси	127
Лариса Алижоновна Мусабаева, Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Истеъмол бозорини ривожлантиришнинг дастурий механизмлари самарадорлигини ошириш йўллари	132
ИНВЕСТИЦИЯ	
Шахноза Сайдуллаевна Музрапова Инвестицион мулк ҳисобини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари	137
Обид Мамаюнович Пардаев Хизмат кўрсатиш соҳасига инвестицияларни жалб қилишнинг “ЗХ+ФКИ” моделидан фойдаланишнинг стратегик йўналишлари	142
Saida Azatovna Sheraliyeva Erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish	147

<p style="text-align: center;">Г.Турсунова, Д.Очилова</p> <p style="text-align: center;">Итальянский опыт развития гастрономического туризма в Узбекистане</p> <p>Аннотация: в статье анализируются понятие гастрономического туризма, итальянский опыт его развития в Узбекистане, статистические данные по гастрономическому туризму, особенности гастрономического туризма в Италии. Также дана информация о современных технологиях и потенциальных методах развития гастрономического туризма в Узбекистане.</p> <p>Ключевые слова: гастрономический туризм, кулинария, современные технологии, национальная кухня, рецептура, гурманы, туроператоры, гастрономические туры.</p>	<p style="text-align: center;">G.Tursunova, D.Ochilova</p> <p style="text-align: center;">Italian experience in developing gastronomic tourism in Uzbekistan</p> <p>Abstract: the article analyzes the concept of gastronomic tourism, the Italian experience of its development in Uzbekistan, statistical data on gastronomic tourism, and the features of gastronomic tourism in Italy. Information is also provided on modern technologies and potential methods for developing gastronomic tourism in Uzbekistan.</p> <p>Keywords: gastronomic tourism, cooking, modern technologies, national cuisine, recipes, gourmets, tour operators, gastronomic tours.</p>
---	--

Mahliyo Yaxshiboy qizi Umarova – “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti assistent o‘qituvchisi

O‘ZBEKISTONNING MAVJUD TURIZM SALOHIYATIDAN KENGROQ FOYDALANISH YO‘LLARI HAMDA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada turizmni rivojlantirishda va uning samaradorligini oshirishda mavjud resurslardan to‘laligicha foydalanish yo‘llari va xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, klassifikatsiyalash tizimi, marshrut, mehmonxona, turistik infratuzilma, turistik resurs, sayyohlik agentligi, pandemiya.

Kirish. O‘zbekistonda turizm resurslarini son hamda sifat jihatdan yaxshilash uchun ulkan imkoniyatlar mavjud bo‘lib, 8000 dan ziyod tarixiy- arxitektura obidalar va go‘zal tabiiy-iqlim resurslari yurtimiz hududida joylashgan. Biz o‘zimizda mavjud imkoniyatlardan hali to‘laligicha foydalana olganimizcha yo‘q. Buni quyidagi ma‘lumotdan ham bilib olishimiz mumkin. Yuqorida aytib o‘tilgan 8000 dan ziyod turistik resurslarning atigi 3/1 qismi turizm uchun faol, qolganlari turistik infratuzilmani shakllantirish va yangi turistik mahsulotlarni tayyorlashni talab qiladi. Bir so‘z bilan aytganda turistik resurslarimizdan to‘laligicha foydalanishimiz uchun ko‘plab tadqiqotlar olib borishimiz zarur.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev ham turizm sohasi rivojiga muhim masalalardan biri sifatida qarab kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ham mavjud salohiyatimizdan yanada samarali foydalanish borasidadir.¹ Respublikaning turizm salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, birinchi navbatda transport-logistika va turizm infratuzilmasidagi muammolarni tezkor hal etish, shuningdek, mavjud resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hisobiga turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish maqsadida bir qator ishlarni amalga oshirish oldinga reja qilib qo‘yildi. Jumladan 2023-yilda rivojlanib borayotgan turizm sohasidagi imkoniyatlar hamda resurslardan har tomonlama keng foydalanish, qolaversa mavjud muammolarni tezkor hal etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi tuzib chiqildi”.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turizm sohasini yazada jadal rivojlantirish bo‘yicha hamda mamlakatimizda mavjud shart salohiyatdan to‘lig‘icha foydalanish qolaversa soha rivojiga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni va muammolarning tahlili I.S. Tuxliyev, L.A.Volkov,

¹ PQ-135-сон 26.04.2023. Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (lex.uz)

I.N. Buturov mahalliy va xorijiy olimlarning ishlarida tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishi mobaynida qiyoslash, qiyosiy tahlil va tizimli, ekspert baholash kabi bir qancha usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. So‘nggi yillarda olib borilayotgan izlanishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki turizm va mehmondo‘stlik biznesida bir qancha sezilarli ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan mamlakatimizda mehmonxonalar sonini ko‘paytirish hamda ularda ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifati va sonini oshirish borasida bir qancha harakatlar olib borildi. Turizm sohasida yana bir muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lgan umumiy ovqatlantirish joylariga ham yanada e‘tibor qaratildi. Sohaning o‘zagi hisoblangan sayyohlik agentliklari va tashkilotlari soni ham so‘nggi besh yillik ichida ildam harakatlarni amalga oshirdi.

Bizning tabiiy va tarixiy manzilgohlarimizga tashrif buyurish maqsadida turistik harakatlarni amalga oshirgan sayyohlar soniga e‘tiborimizni qaratadigan bo‘lsak qiyidagi ma‘lumotlarni olishimiz mumkin.

2023-yilda yurtimizga 6.6 million turist tashrif buyurdi. Bu raqam esa kutilgan 7 milliondan birozgina farq qiladi xolos. Shuni ham aytib o‘tish kerakki O‘zbekistonga tashriy buyurgan sayyohlarning soniga yillar hisobi bo‘yicha qaraganda yuqorida takidlangan 6.6 million turist ikkinchi eng yuqori ko‘rsatkich bo‘lib qabul qilindi. Ya‘ni eng yuqori ko‘rsatkichdan 100 000 nafar turistga kamroq. Eng yuqori ko‘rsatkich 2019-yil COVID 19 pandemiyasidan oldin 6.7 million turist ko‘rsatkichida ro‘yxatga olingan edi.

Agarda oxirgi 7 yillik bo‘yicha turistlar sonini taqqoslaydigan bo‘lsak ushbu ma‘lumotni olishimiz mumkin.

Yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Turistlar soni (million)	2.7	5.3	6.7	1.5	1.9	5.2	6.6

¹Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni 2019 hamda 2022-yillar oralig‘ida keskin pasayishga duch keldi. Butun dunyoga har taraflama to‘siq qo‘ygan pandemiya tufayli 2019-yil 6 748 500 nafar xalqaro turistlar soni bilan eng yuqori ko‘rsatkichni qabul qilgan holat bir yildan so‘ng 1 504 100 nafar xorijiy sayyohlar soni bilan eng past ko‘rsatkich holatiga o‘tdi.

2023-yilda yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlarni ularning maqsadlari bo‘yicha ajratib chiqadigan bo‘lsak quyidagi natijani olishimiz mumkin.

- ❖ Qarindoshlarini ko‘rishga borish maqsadida- 5,6 million kishi
- ❖ Dam olish maqsadida- 773,2 ming kishi
- ❖ Ish safari uchun - 143 500 kishi
- ❖ Tijorat maqsadida - 70,4 ming kishi
- ❖ Davolanish maqsadida- 61,3 ming kishi
- ❖ O‘qish maqsadida - 16,8 ming kishi².

Ushbu 6.6 million sayyohlar qaysi davlatlardan tashrif buyurganiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, quyidagi mamlakatlar fuqarolari turistik maqsadlarda eng ko‘p tashrif buyurgan:

- Tojikiston – 2 155 200 kishi;
- Qirg‘iziston – 1757,1 ming kishi;
- Qozog‘iston – 1 333 300 kishi;
- Rossiya - 714,3 ming kishi;
- Turkiya - 106 500 kishi;
- Turkmaniston – 100,3 ming kishi;
- Xitoy - 42 500 kishi;
- Hindiston - 45 500 kishi;
- Janubiy Koreya – 37100 kishi;
- Germaniya – 29600 kishi;

¹ [Uzbekistan Tourism Industry Statistics 2024 \(tourcentralasia.com\)](https://tourcentralasia.com)

² [O‘zbekistonga 2023 yilda qancha turist kelgani ma‘lum qilindi \(kun.uz\)](https://kun.uz)

- Italiya – 25600 kishi;
- AQSh - 23 ming kishi;
- Fransiya – 18600 kishi;
- Buyuk Britaniya - 16200 kishi;
- Ispaniya – 15200 kishi;
- Belarusiya - 15100 kishi;
- Ozarbayjon - 14,7 ming kishi;
- Yaponiya - 12 400 kishi.

O‘zbekistonga yillar hisobi bo‘yicha qancha sayyohlar tashrif buyurganini hamda hozirgi kunda kutilayotgan sayyohlar soni qanchaga yetishi mumkinligi haqida ma’lumotga ega bo‘ldik. Endi ushbu sayyohlarni qabul qilish uchun qay darajadagi joylashtirish vositalariga ega ekanligimizni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak ushbu ma’lumotga yuzlashishimiz mumkin. Statistika agentligi ma’lumotlariga binoan, ¹2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan mehmonxonalar soni 1088 tani tashkil qilgan.

Bu mehmonxonalarni darajasiga qarab ajratsak, quyidagi ma’lumotlarni olishimiz mumkin.

- ✓ 1 yulduz - 231
- ✓ 2 yulduz - 36
- ✓ 3 yulduz - 120
- ✓ 4 yulduz - 24
- ✓ 5 yulduz - 5
- ✓ Yulduzli toifaga ega bo‘lmaganlar - 672.

Hozirgi kundagi e’tiborimizni ushbu 672 ta yulduzli toifaga ega bo‘lmagan joylashtirish vositalarini yulduzli mehmonxonalar qatoriga qo‘shish hamda 5 yulduzli va 4 yulduzli turli-tuman xizmatlarni taklif etaolish qobiliyatiga ega mehmonxonalar sonini oshirishga qaratilgan.

Sayyohlik agentliklari va tashkilotlari mamlakatda turizmni rivojlantiruvchi asosiy tashkilotlardan biri hisoblanadi. Shu bois O‘zbekistonda sayyohlik agentliklari sonini ko‘paytirishga ham katta ahamiyat berilmoqda. ²Sayyohlik agentliklari va tashkilotlarini hududlar bo‘yicha oladigan bo‘lsak, quyidagi ma’lumotlarni olishimiz mumkin.

Viloyatlar	Sayyohlik agentliklari soni 2021	Sayyohlik agentliklari soni 2022
Toshkent shahri	178	181
Xorazm	8	14
Farg‘ona	8	9
Toshkent viloyati	3	5
Sirdaryo	1	2
Surxondaryo	2	4
Samarqand	41	57
Namangan	1	3
Navoi	10	13
Qashqadaryo	3	7
Jizzax	3	5
Buxoro	16	31
Andijon	3	4
Qoraqalpog‘iston Res.	11	13

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki sayyohlik agentliklari va tashkilotlari mamlakat viloyatlari bo‘ylab bir xil miqdorda tarqalmagan. Ushbu raqamni poytaxtimizda ko‘proq o‘ringa ega ekanligini guvohi bo‘lamiz. Bundan tashqari Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi turizm sohasi nisbatan yaxshi rivojlangan viloyatlarda sayyohlik agentliklari va tashkilotlari soni ko‘proq.

¹ O‘zbekistonda nechta 5 yulduzli mehmonxona bor? (aniq.uz)

² Слайд 1 (stat.uz)

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yurtimiz viloyatlaridagi turizmning rivojlanganlik darajasi turlichadir. U ayrim viloyatlarda ya’ni Samarqand, Toshkent, Xorazm, Buxoro viloyatlarida nisbatan yaxshi rivojlangan. Shuning uchun ham joylashtirish vositalarining tarqalishi turlichadir. Sayyohlik agentliklari va tashkilotlari soniga qaraydigan bo‘lsak ham aynan shu holatning guvohi bo‘lamiz. Bizning maqsadimiz turizm sohasi sekin rivojlanayotgan viloyatlarning holatini yaxshilash, viloyatlardagi sayyohlar uchun qulayliklarni son va sifat jihatdan rivojlantirishdir. Albatta bunday viloyatlarda mehmonxonalar va sayyohlik agentliklari sonini ko‘paytirish uchun ularga bo‘lgan talabni rivojlantirishimiz kerak. Bu holatda so‘z turizm resurslariga borib taqaladi va biz quyidagi takliflarni beraolamiz:

- Joylardagi mavjud resurslarni sonlariga yanada aniqlik kiritish;
- Ularning nomlari keltirilgan ro‘yxatlarini tuzib chiqish;
- Maxsus ishchi guruh tashkillashtirilib, manzilgoh bo‘yicha aniq ma’lumotlar yig‘ish;
- Keng qo‘llaniladigan mashhur marshrutlarga ushbu manzilgohlar safarini ham kiritish.

O‘ylaymizki ushbu takliflar amaliyotga joriy etilsa ko‘zlangan maqsadga olib boruvchi yo‘llardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamatqulov X.M. “Turizm infratuzilmasi”. Ma’ruzalar kursi. Samarqand. - 2009
2. Tuxliyev I.S., Qudratov G.,H., Pardayev M.K. “Turizmni rejalashtirish”, T.: 2010.
3. Tuxliyev I.S. va boshqalar. “O‘zbekistonda turizm xizmat bozorini rivojlantirishning ijtimoiy – iqtisodiy muammolari” monografiya. T.: “Iqtisodiyot”, 2012.
4. Тухлиев Н., Таксанов А. Экономика большого туризма. – Т.: “Ўзбекистан Миллий Энциклопедияси”, 2001.
5. М.Е.По‘latov, R.S. Amriddinova, D.Z. Norqulova, A.Yu. Talibova “Mehmonxonalarda kasbiy etika” Samarqand, 2022.
6. X.M. Mamatqulov “Turizm infratuzilmasi” o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2011.
7. I.S. Tuxliyev, S.A. Abduhamidov “Turizm nazariya va amaliyot”, darslik. 2021.

М.Умарова	M.Umarova
Пути и особенности эффективного использования туристических ресурсов в Узбекистане	Ways and characteristics of effective use of tourism resources in Uzbekistan
Аннотация: в данной статье описаны пути и особенности максимального использования имеющихся ресурсов в развитии туризма и повышения его эффективности.	Abstract: this article describes the ways and features of the maximum use of available resources in the development of tourism and increasing its efficiency.
Ключевые слова: туризм, система классификации, маршрут, гостиница, туристская инфраструктура, туристский ресурс, турфирма, пандемия.	Keywords: tourism, classification system, route, hotel, tourist infrastructure, tourist resource, travel agency, pandemic.

Юлдуз Пирназаровна Урунбаева – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти и.ф.ф.док., доцент

МУЗЕЙ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – АҲОЛИ ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ

<p>Аннотация: аҳоли фаровонлиги қатор муҳим омиллар уйғунлигида тавсифланувчи хизмат кўрсатиш соҳасининг кўлами, унинг муҳим макроиқтисодий кўрсаткичлардаги улуши, аҳоли жон бошига хизматларнинг ҳажми орқали аниқланади. Мақолада музей туризми соҳасини ривожлантириш орқали аҳоли фаровонлигини оширишга доир масалаларга алоҳида тўхталиб ўтилган.</p> <p>Калит сўзлар: музей, туризм, маданият, маърифат, қадрият аҳоли фаровонлиги, турмуш сифати, талаб, истеъмол, аҳоли жамғармаси,иш ҳақи, аҳоли даромадлари, бўш вақт.</p>
--

Кириш. Жамият тараққиётининг ҳозирги босқичида халқаро майдонда аҳоли фаровонлигини ошириш, фан, таълим, маданият ва халқаро иқтисодий-ижтимоий

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

22.05.2024 йилда теришга берилди. 7.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076А/24.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.